



**ISLOM FUQAROLIK HUQUQIDA MULK VA MULKIY
MUNOSABATLAR TASNIFI.**

Xaydaraliyeva Nafosat Xomidjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi

e-mail: xaydaraliyeva18@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Islom fuqarolik huquqi masalalari izchil yoritilgan bo'lib, uning tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari ko'rib chiqilgan. Jumladan, Islom fuqarolik huquqi Qur'on, hadis, ijmo, qiyosga asoslanibgina qolmay, bir qator islam faqihlarining noyob asarlariga ham tayanadi. Qolaversa mavzuni yoritish davomida tushunarli bo'lishi uchun milliy qonunchilik normalariga ham murojaat qilinadi. Mazkur huquqiy tizim o'zining ichki izchilligi va moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Uning asosiy maqsadi jamiyatda adolatli va barqaror huquqiy munosabatlarni shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, mulk huquqi, shartnomalar huquqi, nikoh va meros huquqi kabi sohalarda Islom fuqarolik huquqi muayyan qoidalarga tayangan holda aniq tartibga solish mexanizmlarini taqdim etadi.*

Kalit so'zlar: *Islom huquqi, mulk, mulkiy munosabatlar, fuqarolik huquqi.*

Аннотация: В статье последовательно освещаются вопросы исламского гражданского права, рассматриваются его исторические корни и этапы развития. В частности, исламское гражданское право основано не только на Коране, хадисах, иджме и кийасе, но и на уникальных трудах ряда исламских правоведов. Кроме того, для ясности при освещении темы также делаются ссылки на национальные правовые нормы. Данная правовая система отличается внутренней последовательностью и гибкостью. Его



главная цель — формирование справедливых и стабильных правовых отношений в обществе. Особенno в таких областях, как право собственности, договорное право, брачное и наследственное право, исламское гражданское право предусматривает четкие механизмы регулирования, основанные на конкретных правилах.

Ключевые слова: исламское право, собственность, имущественные отношения, гражданское право.

Abstract: This article consistently covers the issues of Islamic civil law, examining its historical roots and stages of development. In particular, Islamic civil law is based not only on the Quran, hadith, ijma, and qiyas, but also on the unique works of a number of Islamic jurists. In addition, in order to make the topic understandable, national legislative norms are also referred to. This legal system is distinguished by its internal consistency and flexibility. Its main goal is to form fair and stable legal relations in society. In particular, in areas such as property law, contract law, marriage and inheritance law, Islamic civil law provides clear regulatory mechanisms based on specific rules.

Keywords: Islamic law, property, property relations, civil law.

Ma'lumki, mulk masalasi qadimdan kishilarni ohanrabodek o'ziga tortib kelgan. Kishilarning o'zlarida mavjud bo'lgan mol-mulklarining cho'g'iga qarab jamiyatdagi mavqeい belgilangan. Insoniyat tarixi shuni ko'rsatmoqdaki, mulkka intilish barcha makon va zamonlarda bo'lgan. Sirasini aytganda, mulk masalasining ko'p qismi fuqarolik huquqi deb atalmish serqirra, keng ko'lamli huquq sohasida ham tartibga solinadi, ham o'rganiladi. Ammo shuni aytish kerakki, fuqarolik huquqi va mulk huquqi bir-birisiz yashay olmaydi, ular bir-birini to'ldiradi.



Islom huquqining ajralmas bo‘lagi bo‘lgan hamda insoniyat davrida eng kerakli huquq tizimlaridan biri bo‘lgan fuqarolik huquqining vujudga kelish tarixiga nazar tashlasak, xalifalikning ikkinchi asriga, ya’ni eramizning VII-VIII asrlariga borib taqaladi. Islom dinining yoyilishi natijasida fuqarolik huquqi ham ravnaq topa boshlagan. Buning natijasida islom fuqarolik huquqining amal qilish chegarasi kengayib joylardagi qonun-qoidalarga mutanosib bo‘la boshladi. Fuqarolik huquqining istiqbolga erishishiga islom olim va ulamolarining o‘rni beqiyosdir. Jumladan, mazhab asoschilari hisoblanmish Abu Hanifa (Imomi A’zam), Molik ibn Anas, Muhammad Shofeilar o‘z sa’y-harakatlari bilan fuqarolik huquqi rivojlanishida o‘chmas iz qoldirishgan.

Islom fuqarolik huquqiy munosabatlarining subyektlari ehson va ixlos singari fazilarlatlarga ega bo‘lish bilan bir qatorda, har bir islom majburiyati (bergan va’dasi)ga vafo qilishi, vaqtini qadrlashi, hayot va mehnatda muvafaqqiyat qozonish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish xususiyatlarini ta’kidlanadi. Chunonchi mazkur qarashlarni jinoyat huquqi bilan bog’laydigan bo‘lsak, jinoyat huquqi tizimida aqli raso, 16 yoshga to‘lgan va jismoniy shaxs bo‘lgan shaxslar jinoyat huquqiy munosabatlarining subyekti bo‘la oladi, yoki boshqa huquq tizimlarida hali tug‘ilmagan chaqaloqni ham subyekt sifatida ko‘rsatishadi. Ammo islom fuqarolik huquqining subyektlari boshqa huquq sohalariga qaraganda ancha keng. Negaki, huquqning boshqa tarmoqlarida shaxslar turli tavsiflansada faqat jismoniy yoki yuridik shaxslar degan tushuncha qo‘llaniladi. Islom fuqarolik huquqida boshqalardan farqli o‘laroq ozod musulmon shaxslar, zimmiyalar, xo‘jayini nomidan savdo bitimlarini tuzish vakolatiga ega bo‘lgan qullar, xizmatkorlar, vasiylar va yuqorida aytib o‘tganimizdek tug‘ilmagan go‘daklar subyekt sanaladi. Bunda tug‘ilmagan go‘daklar faqatgina meros masalasida subyekt sifatida qaraladi va bu munosabat amalda qo‘llanilishi uchun birdan-bir sharti go‘dak tirik tug‘ilishi kerak. Jinoyat huquqida shaxs 16 yoshga to‘lgan bo‘lishi kerak dedik, islom fuqarolik huquqida 12 yoshga to‘lgan va



balog‘at yoshiga yetgan, yuridik va tibbiy mezonlarga ko‘ra aqli raso musulmonlarga fuqarolik huquqining to‘laqonli subyekti sifatida ularga to‘liq javobgarlik yuklanadi. Milliy qonunchiligidan shaxs 18 yoshga to‘lgandan so‘ng barcha huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi, ya’ni to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘ladi. Ammo ba’zi holatlarda 16 yoshdan ham bunday huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Holbuki, ular balog‘at yoshiga yetib o‘z xati-harakatlarini anglay olmaydigan aqli noraso shaxslar subyekt sifatida qaralmaydi. Islom fuqarolik huquqida subyekt yoshiga yetgan ammo balog‘atga yetmagan shaxslar (balog‘atga yetish yoshi qizlar uchun 9 yosh, yigitlar uchun 12 yosh, ammo o‘lkadagi sharoitlarni hisobga olganda o‘zgarishi mumkin, bir so‘z bilan aytganda qizlarda qizlik, yigitlarda yigitlik alomatlari zohir bo‘la boshlaganda ular balog‘at yoshiga yetgan sanaladi) ruhiy kasal, aqli zaif, ko‘p uxlovchilar, qul va xizmatkorlar mazkur huquqning subyekti sanalmaydi yoki ularga nisbatan cheklov mavjud. Shulardan zimmiyalar toifasini olsak, zimmiyalar musulmon mamalakatlarda **doimiy yashovchi** g‘ayridinlar hisoblanib, ushbu davlatlarda vaqtincha yashayotgan g‘ayridinlar subyektligi cheklangan toifalar qatoriga kiradi. Tushunishimiz uchun davlatimizda ham doimiy yoki vaqtincha istiqomat qiluvchi fuqaroligi bo‘lmagan yoki chet el fuqarolari mavjud. Tabiiyki, ularga qonunchiligidan cheklangan holatda tatbiq etiladi. Ya’ni qaysidir huquq yoki majburiyatlarni bajarishda ular to‘laqonli subyekt sifatida emas subyektligi cheklangan shaxslar toifasida ko‘riladi. Davlat musulmon yoki musulmon emasligidan qat’iy nazar boshqa davlatda yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar yoki chet el fuqarolari zimmiyalar yoki davlatda vaqtincha istiqomat qiluvchi g‘aydirinlar barobarida desak, bizningcha adashmagan bo‘lamiz. To‘laqonli subyekt va subyektligi cheklangan shaxslar bilan bir qatorda subyekt bo‘la olmayidgan toifa ham mavjud. Mahbuslar, biologik o‘lganlar va bedarak yo‘qolgan shaxslar. Ushbu toifadagilar fuqarolik huquqining subyektlari bo‘la olmaydilar.



Subyektlarga mutanosib ravishda obyektlar masalasi ham mavjud bo‘lib, islom fuqarolik huquqining obyektlari islom ahkomlari va shariat normalari bilan tartibga solindigan moddiy va ma’naviy ashyolar va ijtimoiy munosabatlar sanaladi. O’zbekiston Respublikasi FK 81-moddasida fuqarolik huquqning obyektlari sanab o‘tilgan. Unga ko‘ra,

- ashyolar;
- mol-mulklar;
- pul va qimmatli qog‘ozlar;
- ishlar va xizmatlar;
- intellektual faoliyat natijalari;
- shaxsiy nomulkiy huquqlar kiradi.

To‘g‘ri islom huquqi tizimi diniy normalarga asoslangani uchun amaldagi qonunchiligidan farq qiladi. Ammo bizning fikrimizcha yuqorida aytib o‘tilgan obyektlarning hammasi bo‘lmasa ham ba’zilari islom fuqarolik huquqining ham obyektlari sanaladi. Islomga zid bo‘lgan mahsulotlar, masalan may tayyorlash uchun uzum mahsulotlarini sotish va sotib olish, cho‘chqa go‘shtini yetishtirish uchun foydalaniladigan predmetlar fuqarolik huquqining obyekti bo‘la olmaydi.

Huquqshunos olim Isxakovning fikriga ko‘ra, “buyum” tushunchasi turli mazhablarda turli xil talqin qilinadi. Ba’zi faqihlar buyum bo‘lishligi uchun quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak deyishgan: **qiymat, iste’molga yaroqlilik, tabiatiga ko‘ra kimningdir xususiy mulki bo‘la olish xususiyatiga ega bo‘lishi** kerak. Hanafiy ulamolari fikricha **jamg‘arilish xususiyatiga** ham ega bo‘lishi shart deyishgan. Shofeiy va Hanbaliy mazhabining tarafdoshlari **inson mehnati** pul bilan o‘lchanadigan bo‘lsa, uni ham buyum deyish mumkinligini ta’kidlanadi.



Islom huquqi ta'limotida xususiylasha olmaydigan mulklar ham boor. Ular to'rt toifaga bo'linadi:

- 1) **havo, dengiz, sahrolar** – mazkur predmetlar muayyan davlat hududiga tegishli bo'lsa-da, u kimningdir shaxsiy mulki bo'lib hisoblanmaydi. Lekin bizning fikrimizcha, keltirilgan ushbu mulklar ustida nazoratni amalgaloshirishi mumkin, ya'ni havo yoki dengiz muayyan davlat hududida bo'lganligi sababli ularga nisbatan davlat qonunchiligidagi norma belgilanishi mumkin;
- 2) **ummu valad**, ya'ni o'z xojasidan farzand ko'rgan cho'ri – inson ham mulk yoki qaysidir huquqiy munosabatning obyekti sifatida qaralganda uni, cho'rining xojasi xususiylashtira olmagan. Tug'ilgan farzandni yo'sotib olgan, yo'kimgadir qul qilib sotib yuborgan;
- 3) **umumjamoat foydalanadigan joylar** – mazkur toifaga quruqlik va suvdagi qatnov yo'llarini, kanallar, ariqlar, masjid, madrasalarni kiritish mumkin.
- 4) Musulmonlarni chalg'itadigan, to'g'ri yo'lidan adashtiradigan yoki harom qilingan mulklar.

Musulmon aholiga tegishli bo'lgan mulklar ikki guruhga bo'linadi. Ko'char va ko'chmas. Mazkur turlardan **ko'char (manqul)** toifasiga bir joydan ikkinchi joyga ko'chirsa bo'ladigan, o'lchash va tortish orqali uning aniq miqdorini aniqlasa bo'ladigan buyumlarni kiritish mumkin. Masalan kundalik foydalanadigan kitoblar, ayrim texnika vositalari va boshqalar. Ikkinchi toifa sifatida **ko'chmas (g'ayri manqul)** bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib bo'lmaydigan, ko'chirilgan taqdirda ham o'z xususiyatlarini yo'qotadigan buyumlar kiritilgan. Yerga ishlov berishda foydalaniladigan barcha buyumlar ham ko'chmas mulk toifasiga kiritilgan.

Chunonchi ko'chmas mulkni ham bir necha turlarga ajratish mumkin.



Birinchisi **mamluka** – xususiy shaxslarning qo‘lidagi mulk. Mamluka arab tilidan tarjima qilinganda “egalik qilinadigan kishi” deb tarjima qilinadi, ya’ni qul yoki abd, lekin bu kabi qullar boshqalaridan farqli ravishda qo‘lga kiritilgan, sotib olingan yoki yurishlar natijasida qo‘lga kiritilgan qul. Mamluka aynan yer emas, chunki xususiy shaxslarning qo‘lidagi mulk shaxslarga tegishli bo‘lgan har qanday buyum bo‘lishi mumkin. Va bunday buyumlarga buyum egasidan tashqari hech kim egalik qila olmaydi.

Ikkinchisi **amiriya** – davlat mulki. Davlat tasarrufidagi yerlar mahalliy hokimiyat nazorati ostida bo‘lgan. Ya’ni mamlakatdagi barcha yerlarni muayyan davlat organi nazorat qilmay mahalliy viloyatlar, tuman yoki noibliklar nazoratni amalga oshirgan. Mazkur mulk turi hukmdor tomonidan xizmatchilarning katta xizmatlari evaziga iqto tarzida berib yuborilgan yoki dehqonlarga ijara uchun ham foydalanishga berilgan. Abu Abdullo Xorazminiy iqtoning kelib chiqishi haqida “**Mafotix ul-ulum**” asarida shunday yozadi: “**Sulton tomonidan biror kishiga tortiq qilib berilgan yer iqro deb ataladi va uning mulki bo‘lib qoladi**”. Ammo hukmdor o‘zi iqto qilib bergen yerni istalgan vaqtida qaytarib olishi va boshqa kishiga berib yuborishi mumkin bo‘lgan.

Uchinchisi **matruka** – tashlandiq yerlar. Hech kimning tasarrufida bo‘lmagan, umumfoydalanishdagi yerlarga yaylov, o‘rmon maydonlarini misol qilib keltirish mumkin. Tashlandiq yerlardan odamlar chorva mollarini boqishda foydalanishlari mulkin. O‘rmon maydonlari tashlandiq mulklar toifasiga kiritilgani sababli o‘rmon hududidagi daraxtlardan foydalanish mumkin, buni hech kim tasarruf qilmaydi deb oldik.

To‘rtinchisi **amvot** – o‘lik yerlar. O‘lik yerlar tashlandiq yerlardan farqli ravishda hosili kam yoki umuman yo‘q, ishlov berib bo‘lmaydigan, “jonsiz” yerlar sanalib, bunday turdagи yerlar xohlovchilarga ishlov berish, “jonlantirish” uchun evaziga biror narsa yoki haq talab qilmasdan foydalanishga berilgan.



Ma'lumki, fuqarolik qonunchiligidagi mulkka egalikni vujudga keltiruvchi muddat tushunchasi bor. Milliy qonunchiligimizda mazkur muddat **ko'char mulk uchun 5 yil, ko'chmas mulk uchun 10 yilni** tashkil etsa, islom huquqida hanafiy mazhabi faqihlari egalikni vujudga keltiruvchi muddatni 15 deb belgilashadi. Shu sababli shaxs o'zganing mulkiga 15 yil davomida o'zinikidek xolis, halol foydalananib kelgan bo'lsa bu muddat o'tishi bilan shaxs o'sha mulkka ega bo'ladi. Hanafiy mazhabi faqihlari ko'char va ko'chmas mulk uchun alohida muddat haqida fikr bildirgani haqida ma'lumotga ega emasmiz, shu sababli har ikkala mulk turiga ham 15 yilni olaveramiz. Molikiy mazhabi mujtahidlari esa bu muddatlarni alohida ko'rsatishadi. **Ko'char mulklar uchun 2-3 yil, ko'chmas mulklar uchun 10 yil** muddat o'tganidan so'ng va bu vaqt davomida mulkning haqiqiy egasi biror e'tiroz bildirmagan bo'lsa mulk mazkur shaxsning egaligiga o'tadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur maqolada yoritilgan ma'lumotlar Islom fuqarolik huquqi institutlarining chuqur o'rganilishi zarurligini, ular nafaqat diniy, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda ham samarali vosita ekanligini ko'rsatadi. Islom fuqarolik huquqi, ayniqsa shaxslar o'rtaсидаги “oldi-berdi” munosabatlarida axloqiy va qadim tarixdan shakllanib kelgan huquqiy normalar bilan uyg'unlashgani aks etadi. Shu jihatdan Islom fuqarolik huquqi boshqa huquq sohalariga qaragnda anchayin kengligi bilan alohida ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom huquqi [Matn]: darslik / Abdumuxtor Raxmanov, Haydarali Yunusov, Mustafa Qaratash. – T.:TDYU nashriyoti, 2023. - 400b.
2. Isxakov S.A. Islom fuqarolik huquqi asoslari. O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir A.X.Saidov, T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiya, 2005. – 131b.
3. O.Oqyulov. Fuqarolik huquqi: II qism [Matn]: darslik / O.Oqyulov va boshqalar. – Toshkent: TDYU, 2023. – 896 bet.
4. Baratov M.X. Mulk huquqi / Huquqshunoslik ixtisosligi bo'yicha oliy o'quv yurtlari magistratura talabalari uchun darslik. – T.:TDYI nashriyoti, 2009. -336 bet.